



“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”

Mavzusidagi II anʼanaviy ilmiy - amaliy
xalqaro anjuman materiallari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

***“O'ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O'QITISH
METODIKASI MUAMMOLARI”***

mavzusidagi II an'anaviy ilmiy – amaliy

**XALQARO ANJUMAN
MATERIALLARI
1-KITOB**

(13-dekabr 2023-yil)



JIZZAX-2023

qiladi. Masalan, “So‘qmoq” kinoqissasida Sharof Boshbekov o‘z ma’nfatini ko‘zlab xalqning bug‘doyini o‘g‘irlagan Safarqul va ijobiy qahramon Abulqosim uning ishiga qarshi chiqishi va natijada o‘zi shu o‘g‘rilikda ayblanib qamalib ketishi kabi konflektni syujetga mahorat bilan singdirib yuborgan. Ushbu pyesada Sh.Boshbekov mahoratli dramaturgligi tufayli ichki kolliziya bilan tashqi konfliktning birbiriga qorishib ketishini aniq ko‘rsata olgan.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, badiiy asarda konflikt o‘tkirlashib borgan sari uning estetik saviyasi ham ortib boradi. Ijodkorlar hayotdagi ziddiyatlarini o‘z asariga olib kirar ekanlar, uni bo‘rttiribroq, yorqinroq tasvirlashga intiladilar, bu esa asarni emotsional ruhini ko‘taradi. Inson paydo bo‘libdiki, u ziddiyatlar qurshovida yashaydi, ana shu ziddiyatlar uning ongini o‘stirib boradi, mana shu ijtimoiy ziddiyatlarni badiiy yo‘sinda adabiyotga olib kirilishi va uning badiiy asarda aks etishi, o‘tkir syujetli asarlarning dunyoga kelishiga omil bo‘ladi, bunday o‘tkir ziddiyatlarga ega bo‘lga syujet, albatta, o‘quvchini badiiy asarga qiziqishini ortiribgina qo‘ymay, uni ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konflikt>
2. Sh.Boshbekov “Charxpalak” kinoroman, birinchi jild, T.: “O‘zbekiston” nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2017 – 18-19 b.
3. Sharof Boshbekov. Musofir bo‘lmaguncha. “Yangi asr avlodi”, 2011-yil. 39-40-betlar
4. Sh.Boshbekov – Musofir bo‘lmaguncha , “Tentak farishtalar” kinoqissa; “Yangi asr avlodi”, 2011-yil. 254-bet

MILLIY ADABIYOTIMIZNING YIRIK NAMOYANDASI G‘AFUR G‘ULOM IJODIGA NAZAR

*Davlatova Munisa Aminovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
Mahamatolimova Xamida Mirahim qizi,
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti talabasi*

Ijodkorlarimiz adabiyot, badiiy so‘zni millatning hayoti, najoti, kelajagi o‘laroq anglab, uning ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayratini sarf etishgan. Xususan, jadid ma’rifatparvarlari ishlab chiqqan milliy taraqqiyot dasturining asosiga adabiyotning qo‘yilishi bejiz emas.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans, Yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyalarini ham adabiyot ko‘magisiz, badiiy so‘z qudratisiz aslo amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu bois Prezidentimiz tomonidan bu borada alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Dastlab kitobxonlik tanlovlarini o‘tkazish bilan boshlangan ishlar “Besh tashabbus” bilan yanada keng ko‘lam kasb etdi.

Milliy islohot, ilm-fan yo'lida o'limga ham tik borgan jadid ma'rifatparvarlari, xususan, milliy adabiyot tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkorlar hayoti va ijodini o'rganish, keng targ'ib qilishga qaratilgan qarorlar ham masalaning naqadar muhimligi, maqsadning qanchalar qat'iyligini isbotlaydi.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida: "Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", degan ilhombaxsh fikrlari jamiyat ma'naviy taraqqiyotini adabiyotsiz tasavvur qilib bo'lmasligini yana bir bor tasdiqladi.

Shu bois Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi tegishli qarori qabul qilinib, bu hujjatda ham ayni shu maqsad, ya'ni jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarning ongu shuuri, tafakkur va qalbini tarbiyalashda ijod ahlining hayotiy ibrati va asarlari g'oyalariga tayanish nazarda tutildi.

Bajarilgan ishlar sirasida adibning hayoti va ijodiga doir 10 nomdagi kitobning nashr etilishi alohida ahamiyatga egadir.

"Adabiyot va huquq uyg'unligi" to'plamida G'afur G'ulom asarlarining ilmiy badiiy qiymati, adibning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, ijodining o'rganilishiga oid maqolalar kiritilgan. Aytish joizki, adibning "Vaqt", "Sog'inish" she'rlarining falsafiy, badiiy qiymati, ayniqsa, "Sen yetim emassan", "Shum bola", "Yodgor" asarlaridagi xalqimizning boshiga kelgan zug'umlarni mohirona yoritilganligi to'planning ilmiy salmog'ini yanada oshirgan.

G'afur G'ulom asarlarini o'rganish asosida adib ijodini respublika va xalqaro miqyosda keng yoyish va ommalashtirish, ijodkor she'riyatida sharqona falsafa, yuksak insoniy tuyg'ularning badiiy talqini xususida fikr almashish va bu fikrlarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish, G'afur G'ulom ijodining xorijda o'rganilishi, adib asarlarining tarjimalari va bu borada amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalarni belgilash, G'afur G'ulomning yaqinlari bilan shoirning hayoti, amalga oshirgan ishlari, hayot tarzi va insoniy qiyofasi haqida suhbatlar o'tkazish maqsadida yirik konferensiya tashkil etildi.

G'afur G'ulom ijodida davr muammolarining aks etishi, masalalarning ifodalanishi, she'riyatida Sharq falsafasi, adib asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish muammolariga doir maqolalar o'rin olgan.

Xususan, "G'afur G'ulomning badiiy mahorati" ilmiy maqolalar to'plamiga taniqli adabiyotshunos olimlardan Naim Karimovning "Serqirra bilim sohibi", Baxtiyor Nazarovning "G'afur G'ulomning nasriy asarlari", Umarali Normatovning "Shum bola": mafkuraviy-siyosiy tazyiq sharoitida ruh erkinligi", Ibrohim Haqqulning "Sharq mumtoz adabiyoti va G'afur G'ulom ijodiyoti", Hamidulla Boltaboyevning "Navoiy bahridan bahramand ijod", Abdug'afur Rasulovning "G'afur G'ulom ijodi tanqidchilar talqinida", Qozoqboy Yo'ldoshevning "Millat ruhi ifodachisi", Suvon Melining "Komik katarsis" kabi qiziqarli maqolalari kiritilgan.

Ayniqsa, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurovning "G'afurona tarona" maqolasida G'afur G'ulom badiiy so'zining inson umrining eng mushkul savdosi – vaqtni yengib o'zga vaqt kengliklari tomon yo'l olishining asoslari yoritib berilganki, kitobxon muallifning akademik shoir ijodidan ta'sirlanganini maroq bilan o'qiydi, "G'afurona tarona"dagi durdona qaydlardan ko'ngli yorishadi.

Jumladan, hassos shoira Zulfiya G'afur G'ulomni shunday xotirlaydi: "Adabiyotda ustoz-u shogirdlikning mantig'i shuki, birov-birovga qanday ijod qilishni o'rgatmaydi. G'afur aka o'z davrining juda ko'p yoshlariga ma'naviy homiy edilar. Keyin-keyin anglab yetdimki, u kishining har bir talabi, o'giti, mehribonligi qadim-qadimdan an'ana bo'lib kelgan ustoz-u shogirdlik maktabi saboqlarining davomi ekan..."

"G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini ta'lim jarayonida o'rganish" o'quv-uslubiy qo'llanmasi G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish va uni yosh avlodga o'rgatishda amaliy yordam beradi. Qo'llanmada alloma hayoti va ijodiga doir ko'plab ma'lumotlar berilgan bo'lib, ular o'qituvchining bu xususdagi bilim va ko'nikmalarini oshiradi, o'quvchilarning esa G'afur G'ulom hayoti, ijodini anglashiga ko'maklashadi. Shuningdek, qo'llanmadagi ma'lumotlardan Adib hayoti va ijodi yuzasidan badiiy kechalar uyushtirish, ilmiy-nazariy konferensiyalar o'tkazish, yozuvchi asarlarini mustaqil o'qib, o'zlashtirishda ham foydalanish mumkin.

"Farzandlarimga" she'riy to'plamidan esa ijodkorning "Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi" kabi yoshlarni bilim olish, o'qish, izlanishga da'vat qiluvchi she'rlari bilan birga "Alisher", "Go'zallik nimada", "Sog'inish", "Kuzatish", "Vaqt" kabi betakror durdonalari ham o'rin olgan.

Albatta, akademik adib G'afur G'ulom hayoti va ijodiyotini o'rganish, munosib targ'ib qilish borasidagi ishlarimiz hali davom etadi.

IBORALARNING SHAKLIY MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

*Abdujalilova Feruza Shadiyarovna,
JDPU katta o'qituvchisi*

O'zbek tilini iboralarsiz tasavvur qila olmaymiz va har bir so'zlayotgan so'zimizda, bayon qilayotgan fikrimizda iboralarni qo'llaymiz Chunki, aynan frazeologizmlar nutqimizni go'zal va ta'sirchan qiladi, bildirmoqchi bo'lgan fikrimizga turli ma'no nozikliklarini yuklaydi. "Ibora -ikki va undan ortiq so'zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi odatda bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko'chma ma'noli barqaror birikmadir"[1;113].

Masalan, "quling o'rgilsin", "peshonamizda bori", "oyog'osti qilmoq", "qo'y og'zidan cho'p olmagan" kabilar shular jumlasidandir. Frazeologizmlarni ham o'z o'rnida qo'llash katta mahorat hisoblanadi. Biz iboralarni qo'llaganimizda ularda milliy mentalitetimiz, milliy qadriyat va an'analarimiz yaqqol aks etadi. Bu xususda D. Ochilov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Avvalam bor, frazemalar mutloq milliy xarakterga ega bo'ladi. Milliylik ularning tarkibiy tuzilishi, komponentlik tarkibi, obrazlilik va ma'no – mazmunida

48. IBRAGIMOVA LATOFAT. Ona tilini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos prinsiplari	183
49. ХАЙИТОВА МИЯССАР. Исследование современных методик преподавания русского как иностранного языка: вызовы и перспективы	189
50. XAYRIDINOV BEKZOD, RAJABOVA LAYLO. Hozirgi kunda chet tillarini o'rganishning ahamiyati	195
51. XAMROYEVA GULMIRA. Sharof Boshbekovning ziddiyat yaratish uslubi	197
52. DAVLATOVA MUNISA, MAHAMATOLIMOVA XAMIDA. Milliy adabiyotimizning yirik namoyandasi	200
53. ABDUJALILOVA FERUZA. Iboralarning shakliy munosabatiga ko'ra turlari	202
54. MO'YDINOV QODIRJON, FAYZULLAYEVA MASHXURA. "O'zbek tili morfem lug'ati" dagi ayrim so'zlarning bugungi kundag'i morfemik tahlili	206
55. TILAVOVA MUNISXON. "Odamiylik mulki" asarida qo'llanilgan frazeologik birliklarda sinonimiya hamda antonimiya	208
56. YAKUBOVA DILOBAR Teaching a foreign language at a university now: opportunities and challenges	215
57. RAXIMOV ABDUKARIM. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida harbiy soha bilan bog'liq atamalar	218
58. AKBARALIYEVA ROBIYAXON. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari: lingvokulturologiya	220
59. TEMIROVA FARIDA. Yozuvchi Xayriddin Sulton "O'tkan kunlar" "andisha"si haqida	222
60. MUHAMMADIYEVA MUSHTARIY. Zamonaviy adabiyotda Lutfiy va Navoiy obrazlari talqini	224
61. ОЛЖАБАЕВА НҮРГҮЛ. Ұлты үшін күрескен – ұлы тұлға!	227
62. ASQAROVA MASHHURA. Muammo janri – so'z sehrining mahsuli	230
63. ERGASHEVA MARJONA. Azim Suyun she'riyatining mavzu ko'lamini va yuksak vatanparvarlik motivlari	234
64. MUMINJONOVA DILBARXON. Reklama sloganlarining sintaktik tahlili	236
65. БАЙДУЛЛАЕВА ГҮЛЖАЙНАР. Қазақ тіліндегі сөйлем мүшелерінің орны	240
66. ABDUG'AFFOROVA ZUHRA. Diachron yasalmalarning struktur tahlili	242
67. SALOHIDDINOVA SEVINCH. G'afur G'ulomning "Shum bola" asari hamda she'rlarida keltirilgan maqollar va iboralar haqida	245
68. XASANOV SHAHZOD - cha qo'shimchasining ma'nolari	247
69. RUZIMATOVA DILOBAR. "Shiroq" afsonasida vatanparvarlik nutqi leksikasi	249
70. XIMMATOVA GULNORA. G'afur G'ulom lirikasida falsafiy tafakkur va milliy ruh masalasi	251
71. HASANOVA DILDORA. "Kafansiz ko'milganlar" asarida qo'llanilgan harbiy leksikaga oid atamalar izohi	255
72. MATKARIMOVA GULNOZA. Sinonim va antonimlarning uslubiy xususiyatlari	257
73. USMONOVA MUNOJOT. Ogahiy g'azallari badiiyati	263
74. FATXULLAYEVA FAYOZA. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asarida harbiy leksika	266